

**O‘ZBEKISTONNI IQTISODIY RAYONLASHTIRISHDA TABIIY SHAROIT VA  
RESURSLAR AHAMIYATI**

**Xoldorova G.M.**

*Jizzax Davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va itisodiy  
bilim asoslari kafedrasida katta o‘qituvchisi, g.f.f.d., PhD*

**Tashanov S.X.**

*Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabasi*

**Umarov M.F.**

*Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabasi*

Mamlakatlarning hududiy rivojlanishi, iqtisodiy geografik rayonlarining mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida tutgan o‘rnini tadqiq qilish shunisi bilan muhimki, iqtisodiy rayonlar mamlakatlar xo‘jalik tizimining iqtisodiyoti va ijtimoiy taraqqiyotidagi asosiy nuqtalari hisoblanadi va jahon hamjamiyatida mintaqaning tutadigan o‘rnini belgilovchi omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiy rayonlashtirish mintaqada o‘ziga xos tarix va hududiy xususiyatlarga ega. Mustaqillik yillarida mintaqalar mamlakatlarning o‘zaro iqtisodiy uzviyligi yo‘qoldi, har bir respublika o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilab oldi. Binobarin, mintaqalar tarkibidagi mamlakatlar hududida xo‘jalik tizimini hududiy tashkil etishga yangicha qarashlar paydo bo‘lganligi tabiiy hol.

Mamlakatimiz hududi qadimdan o‘zining sug‘orma dehqonchilik madaniyati, ilmu-fan o‘choqlaridan biri sifatida ma‘lum-mashhur bo‘lgan. Xususan, uning yuksak darajada rivoj topishi keyingi, ya‘ni mustaqillik yillariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda O‘zbekistonning yangi iqtisodiy geografiyasi tubdan shakllandi, voha va vodiylari, ularni bog‘lovchi yo‘llar yanada mustahkamlandi, bepoyon cho‘l hamda tog‘ va tog‘ oldi hududlari tabiiy resurs salohiyatidan foydalanishga keng imkoniyatlar ochildi, o‘shish qutb va markazlari vujudga keldi. So‘nggi yillarda respublikamiz iqtisodiyotining yuksak darajada rivojlanib borishi jahonning nufuzli tashkilotlari tomonidan e‘tirof etilmoqda.

Iqtisodiy geografik tadqiqotlar ikki tarkib, ya‘ni tarmoqlar tarkibi bilan hududiy tarkibning uyg‘unlashuvini, biridan-ikkinchisiga o‘tgan holda tahlil qilishni nazarda tutadi. Bu esa, mehnat taqsimotining ijtimoiy va hududiy shakllari bilan bog‘liq. O‘zbekiston iqtisodiyotini geografik tomonlar – shimol, janub, g‘arb va sharq miqyosida yoki havza prinsipi asosida (Amudaryo va Sirdaryo havzalari) tahlil qilish mumkin. Shuningdek, uni geomorfologik va tabiiy-xo‘jalik rayonlar jihatdan tekislik va tog‘ – tog‘ oldi hududlari bo‘yicha, cho‘l, voha va vodiylar miqyosida ham ko‘rsa bo‘ladi. Demak, ko‘rinib turibdiki, tarkib, ya‘ni yaxlit tizimning uzviy qismi “gorizontal” holatda ham turlicha bo‘lar ekan. Biroq, iqtisodiyotni boshqarish, statistik ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilish jihatidan ma‘muriy tarkib ancha afzalliklarga

ega. Shuning uchun ham ma'muriy birliklarning to'g'ri tashkil etilganligi, ularning barqaror va o'zgartmasligi katta amaliy ahamiyatga ega.

Iqtisodiy rayonlarning ilmiy-amaliy ahamiyati, eng avvalo, ularning ma'muriy-hududiy bo'linishni tashkil etishda, mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda, shuningdek, o'quv jarayonida – mamlakatning iqtisodiy geografiyasini tizim-tarkib yondoshuv asosida o'rganishda o'z aksini topadi. Aytaylik, O'zbekiston iqtisodiy geografiyasini faqat uning xo'jalik tarmoqlari bo'yicha o'rganish amalda iqtisodiy geografik ta'rif hisoblanmaydi, sababi – bu yerda hududiy yondoshuv yo'q. Shu bois, har qanday hududning iqtisodiy geografik tavsifi taxminan 55-60 foizi hududiy qismdan iborat bulmog'i darkor. Hozirgi davrda O'zbekiston milliy iqtisodiyoti hududiy tarkibi quyidagi 6 ta asosiy iqtisodiy rayonlar darajasida ko'riladi:

1. Toshkent iqtisodiy rayoni – Toshkent shahri va Toshkent viloyati tarkibida;
2. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni – Jizzax va Sirdaryo viloyatlari;
3. Farg'ona iqtisodiy rayoni – Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari;
4. Zarafshon iqtisodiy rayoni – Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari;
5. Janubiy iqtisodiy rayon – Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari;
6. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni – Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati.

O'zbekistonning asosiy ma'muriy birliklari maydoni va demografik salohiyati bo'yicha bir – biridan keskin farq qiladi. Bu yerda geografik qonuniyat shundan iboratki, viloyat maydoni qancha katta bo'lsa, demak bilingki, odatda, bunday joylarning tabiiy sharoiti xo'jalik yuritish uchun uncha qulay emas. Mamlakatimizning eng yirik mintaqasi – Qoraqalpog'iston Respublikasining maydoni eng kichik hududni egallagan Sirdaryo yoki Andijon viloyatidan 38,7 marta katta. Xuddi shunday, Navoiy viloyati ham juda keng maydonni (111.0 ming kv km yoki respublika hududining ¼ qismi) egallaydi, uchinchi o'rinda yana bir cho'llik mintaqasi – Buxoro viloyati turadi. Boshqa sharoitlar bir xil bo'lgan holda, ma'muriy-hududiy bo'linishni ilmiy asoslangan iqtisodiy rayonlashtirish asosida olib borish maqsadga muvofiq. Ammo, mavjud ichki ma'muriy-hududiy tuzilmani tez-tez o'zgartirib borish, bu borada har xil “geografik o'yinlarga” yo'l qo'yish yaxshi oqibatlariga olib kelmaydi. Binobarin, bunday birliklar mumkin qadar to'g'ri ajratilgan va turg'un bo'lishlari kerak.

Asosiy iqtisodiy rayonlar bizning sharoitimizda quyidagi bazaviy sohalarga ega bo'lishlari maqsadga muvofiq:

- yoqilg'i-energetika bazasi;
- qurilish industriyasi;
- agrosanoat majmuasi.

Yuqoridagi ishlab chiqarish tarmoqlari har bir iqtisodiy makon uchun zarurdir. Agar shu nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, faqat Toshkent iqtisodiy rayoni bunday mukammallikka ega. Qolgan iqtisodiy rayonlarda esa u yoki bu tarmoq sust rivojlangan. Masalan, Janubiy rayonda ularning birortasi yetarlicha emas, Farg'onada



energetika va qurilish bazasi zaif, Mirzacho'lda to'qimachilik sanoati yaxshi yo'lga qo'yilmagan va xokazo.

O'zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirishda agroiqlimiy xususiyatlarga e'tibor berish orqali respublika hududini qishloq xo'jalik zonalariga ajratish, hamda resurslardan unumli foydalanishga zamin yaratilgan. Bunda, markazdan kelgan olimlar bilan bir qatorda o'zbek geograf olimlari ham faol ishtirok etganlar. Tabiiy geografik rayonlashtirish masalasi hududlar agroiqlimiy resurlari va tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanish masalasiga aylanib, respublikalarni iqtisodiy rayonlashtirish tadqiqotlariga asos bo'lgan. O'rta Osiyo respublikalari, jumladan O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy rayonlashtirish masalasi avvalo viloyatlar va tabiiy hududlarning agroiqlimiy resurslaridan unumli foydalanishga qaratilgan edi. Binobarin sobiq ittifoq davrida O'zbekiston hududi asosan qishloq xo'jalik mahsulotlari, aynan paxtachilikni rivojlantirish maqsadida rayonlashtirilgan deyish mumkin. Shunday qilib, agroiqlimiy tahlil O'zbekiston hududini o'zida agroiqlimiy zonallikning kenglik qonuniyatini namoyon qiluvchi tekislik va shunday zonallikning balandlik qonuniyatini aks ettiruvchi tog'oldi va tog' kabi ikki qismga ajratishga imkon beradi.

Bu qismlarda joylashgan viloyatlarning hududiy chegaralanishi va qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish imkoniyatlari bilan birgalikda aholi joylashuv tizimlarini doimiy tahlil qilish va o'rganib borish maqsadga muvofiqdir, zero ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot doimo o'zgarish jarayonini boshidan kechiradi

Xulosa qilish mumkinki, iqtisodiy rayonlashtirish O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarish va mehnat resurslarini hududiy tashkil etishda ijobiy natijalarga erishilgan. E'tirof etish mumkinki, paxtachilikni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan bunday rayonlashtirish respublika viloyatlarida turli natijalarga olib keldi. Cho'l hududlarini o'zlashtirilishi natijasida ekin maydonlari kengaydi, agrosanoat majmuasining yaratilishi yirik shaharlarda sanoatni shakllantirdi. Binobarin, iqtisodiy rayonlashtirish masalasiga qanday yondashishdan fat'iy nazar hududlarda ishlab chiqarishni tashkil etish va ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. A.Coliev. "O'zbekiston geografiyasi". T. 2014 yil
2. Vahobov, M. Tillaboeva. "Iqtisodiy geografiya asoslari". T. O'qituvchi, 2001 y.
3. Baratov P. "O'zbekiston tabiiy geografiyasi". T. "O'qituvchi", 1993 yil.
4. Abirqulov Q. "Jahon mamlakatlari iqt. va ijt geografiyasi". T. 2006 y.
5. Xoldorova, G. (2021). Мирзачўлда атроф-муҳитни мониторинг қилиш масалалари. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*

6. Gapparov, A., & Kholdorova, K. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
7. G,M Xoldorova, X,P Xoldorova, O.U Qo'chqorova Joy nomlari toponimiyasi haqida mulohazalar. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH 2 (13), 134-137